

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

Nº 3 (66336)
2002 yil 18 yanvar, juma

Sotuvda erkin narxda

*San'at inson uchun tarbiya
o'chog'i, ruhiga tetiklik, yuragiga
o't qalab, qalbiga shodlik ularshuvchi
buyuk bir ne'matdir. Har bir farzand
birorta musiqa asbobida kuy ijro eta olishi*

BAYRAMLARING

*yoki qo'shiq kuylab, zavqlanishi kerak.
Kuy, qo'shiq bolaning fikr doirasini
kengaytiradi. Ma'naviy
tarbiyasiga ijobiy ta'sir
ko'rsatadi.*

Toshkent Davlat Milliy Raqs va Xoreografiya Oliy mакtabida Vatan himoyachilar kuni va Qurolli kuchlar tashkil topganining 10 yilligi munosabati bilan «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni» deb nomlangan badiiy va musiqali kecha bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekistonimizning ko'zga ko'ringan san'at darg'alaridan Roziyaxonim Karimova hamda

Qunduzxonim Mirkarimovalar, ularning shogirdi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan hamda Qoraqalpog'iston xalq artisti, O'zbekiston Mudofaa Vazirligi qoshidagi ashula va raqs dastasining bosh baletmeysteri, Mukarramaxonim san'atining davomchisi



Ziyodaxon Madrahimovalar bayramning aziz mehmonlari qatoridan joy olishdi. Kechani Oliy maktab rektori Mahmud Ochilov ochib, yig'ilganlarni bayram bilan qizg'in tabrikldi. Tabrik

MOL BO'LSIN. YURTIM

so'ngida Oliy Raqs mакtabi bilan Vatan himoyachilar o'rtasidagi uzilmas do'stlik rishtalari mushtarakligi butun umr bo'lishligrini ta'kidladi. Vatanni qo'riqlash sharafli kasb ekanini uqtirib, ularga mana shunday mas'uliyatli ishlarida yuksak omadlar tiladi. O'zbekiston Qurolli kuchlari qoshidagi markaziy ashula va raqs dastasii hamda «Qizaloq» guruhi shirintoylarining chiqishlari yig'ilganlarda juda katta taassurot qoldirdi.

*Yurtim, bayramlaring ziyoda bo'lsin,
Har kuning, har tuning quvonchga to'lsin.
Farzandlaring baxti bus-butun bo'lsin,
Bag'ringda yayrashib, quvnashib kulsin.
Tuhfaniso ORTIQBOY qizi.*

TUSHIB QOLMASIN

Nodirjon birinchi sinfda o'qiydi. Uning dadasi yangi kostyum olib berdi. Nodirjon xursand bo'lib mакtabga yangi kostyumin kiyib ketayotgan edi. Oyisi:

- O'g'lim mакtabga borganingda o'rtoqlaring bilan olishib, tugmalarinги tushirib qo'yimagin, - deb tayinladi.

Nodirjon darsni tugatib, uyiga keldi. Oyisi bunday q a r a s a kostyumning bitta ham tugmasi yo'q emish.

- O'g'lim tugmalarinги qani? - deb so'radi. Tushib qolmasin deb, hamma tugmalarimni uzib cho'ntagimga solib qo'ygan edim, - deb javob berdi Nodirjon.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118- mакtabning 4- «A» sinf o'quvchisi.



ARCHA

O'rmonдан kelgan kuyi,
Yasanibsan kun bo'yi.

Shoxlaringga o'yinchaoq,
Ming chiroqliko'zmunchaoq.

Izzatingni qildik biz,
Mezbonlikni qildik biz.

Gurkirading barq urib,
Xush bo'yingni usurib.

Bayram bayramdek o'tdi,
Bozag'hayrondek o'tdi.

Goh keng, goho tor bag'ir,
Bizlar odammiz axir.

Yangi yilga so'zim bor,
Archajonga to'zim ber.

Archa, archa, archajon,
Shoxlaringga mingmujron.

Senga kelgan boltaga
Boshim qo'yib beray jon..

UMIDA

Diplomga ega bo'lish - bu hali tom ma'nodagi ziyozi emas. Ziyozi odam o'z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo'lakcha inson bo'ladi. Islom KARIMOV.

MUNOSIB HISSA

Har bir oliy o'quv yurtida bo'lgani singari, Toshkent kimyo-tehnologiya institutida ham turli tadbir, uchrashuv va tanlovlardan uyuşdırılıb, talabalar saviyasi oshirishga alohida e'tibor berilyapti.

2001-2002 o'quv yilining 1-yarimida «Prezident asarlari bilimdonlari» ko'rik tanloving mantiqiy davomi bo'lgan «O'zbekiston iqtisodining 10 yillik usqlari» mavzusida tanlov bo'lib o'tdi. Tanlovda magistrantlar jonbozlik ko'rsatib, o'z bilimlarini yanada oshirib borayotganligini yaqqol namoyon etdilar. Institutda o'tkazilgan o'quv-amaliy anjumanda talabalar O'zbekistonning 10 yil ichida erishgan iqtisodiy yutuqlarini ko'rgazmali materiallar va ma'ruzalarda ifodaladilar. Talabalardan Sanjar Azimovning «Mustaqillik odimlari», Norxol Mullaboyevaning «Men milliy

g'oyani qanday tushunaman deb nomlangan ma'ruzalari yuqori baho oldi. Norxol o'z so'zida «Inson tug'ilib yoshi katta bo'laverar ekan, yaqin yoki uzoqqa mo'ljallangan ishlarni rejalashtiradi. Reja tuzishdan oldin har bir insonda aniq bir g'oya bo'ladi. Bu g'oya uning yodiga tushib, asta-sekin niyatga aylanadi. Chunki inson boshqa jonzotlardan faqatgina kiyinishni, yuzi, qiyofasidan emas, balki g'oyasi bilan ham ajralib turadi», deb ta'kidladi... Menimcha, milliy g'oya hammamizda bor, hammaning ham niyati, orzusi bo'lsa kerak. Bizning va kursdoshlarimning ham niyati bitta, institutda olayotgan bilimlarimizni kimyo-sanoatni rivojlantirish orqali O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shishdir.

Dilnoza MUTALOVA,
Nilufar FAYZIYEVA
ToshKTI I- bosqich
magistrantlari.

*Ulamo bilan suhabatda bo'ldim va pok niyatlari,
toza qalbli kishilarga talpindim. Ularning
himmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslari
bilan duo-fotiha berishlarini o'tindim.
Amir Temur o'gitlaridan.*

POK NIYATLI, TOZA QALBLI KISHILARGA TALPINDIM

Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis sessiya yekunlarida «2002 yil - Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qildilar. Bu har tomonloma o'ylanib, o'rganilib, tekshirilib, tarix saboqlari, dono xalqimiz o'gitlaridan kelib chiqilgan xulosa asosida qabul qilingan tadbirdir. Buning to'g'riligiga hech qanday shak-shubha yo'q. Bizning dono xalqimiz «Qari bilganni, pari bilmas», «Qarisi bor uyning parisi bor» kabi qator oltinga teng maqollari bilan duogo'ylarimiz, maslahatgo'ylarimiz, hayot yo'lida qoqilsak suyanchig'imiz - qariyalarmizni avaylash, ularga muruvvat ko'rsatishga undaydi.

Ziyoda RASULOVA,
O'zMU jurnalistik fakultetining
1-kurs talabasi.

SOG'INCHIMNI TASHLAMASMAN, HECH QACHON

Men «Viloyat iqtidorli bolalar ko'rige»da qatnashib, munosib o'ringa sazovor bo'ldim. «Sog'inchimni tashlamasman, hech qachon» nomli she'riy to'plamim chiqdi. Nomzodimni Zulfiyaxonim nomidagi davlat mukofotiga qo'yishdi. Tuman miqyosida g'olib bo'lib, viloyatga chiqdim. Quyida she'rlarimdan namunalar o'qiysiz.

ARCHA

Ko'm-ko'k yashil archajon,
Yaproqlaring dur, marjon.
O'ynichoqlar juda ko'p,
Yulduzlar go'yo osmon.

Shodlikka to'lib barcha,
Atrofingda aylanar.
Qorbobidan sovg'ani,
Olmoq uchun shaylanar.

MUSICHA

Buncha muloyim qushsan,
Ba'zida ajib tushsan.
Beozor qush musicham,
Kelgin don-dunlar sochsam.

Dadam yaxshi biladi,
Nasihatlar qiladi.
-Qizim bu qushni urma,
Urib, gunohga botma.

*Sadoqat SAIDOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
118- maktabning 5- sinf o'quvchisi.*

BOG'BON BOBOM

Bir paytlar Surxondaryolik tog'amiz Qo'qonga poyezdda bir necha xurmo ko'chatlarini olib kelgandilar. O'shanda ko'pchilik Surxondaryo xurmosi Qo'qonda o'smaydi, havosi boshqa deganlar mana endi uyalib ham qolishdi. Hozir qishlog'imiz xonadonlarida xurmo daraxti osmono'par bo'lib o'sadi. Xurmoni Qo'qon qishloqlariga tarqatgan bobom bugun bir kam 100 yoshdalar. Aytishlaricha, bobomning do'stlaridan uch-to'rt nafar qolibdi, xolos. Shuning uchun ham bu sanoqli do'stlar tez-tez tuman choyxonasiga yig'ilib diydorlashadilar. Diydor - g'animat, deydilar.

Bir piyola choy ustida ular davrimizning gullab - yashnayotganligidan, iqtisodiyot, madaniyat rivojlanib borayotganligidan mammun bo'lib, bu kunlarga yetganliklaridan shukronalar aytadilar. Jang maydonlarida sog'lig'ini yo'qotgan bobom bugungi dorilomon kunlarning baxтиyor insonidir.

Ular bog' yaratib, bog'bon bo'ldilar. Nevara-yu, chevaralarga mehribon, bog' yaratayotgan bog'bon buva. Biz esa salkam 100 yoshli bobomiz bilan faxlanamiz.

*Xurshida
BOYMIRZAYEVA,
Mirzo Ulug'bek
tumanidagi
248- maktabning
8-sinf o'quvchisi.*

«TONG YULDUZI»NI BUXORODA O'QISHADI

Mana, «Tong yulduzi» gazetasining yangi soni qo'limda. Bu gazeta men uchun bolaligimdan aziz. uni o'quvchilik yillarimdan to hanuzgacha sevib o'qiyman. Bu gazeta hozirgi kunda nafaqat mening, balki farzandlarimning ham qadrondan yo'ldoshi. Chunki unda bosiladigan har bir maqola, she'r va lavhalarni ular ham sevib o'qishadi, boshqotirmalarni ishlashadi, undan yangiliklar izlashadi. Uyimda gazetaning kattakon bir to'plami mavjud. Ularda o'quvchilarim Nargiza, Ruxsora, Marg'uba, Malohat va boshqalarning, qizim Feruzaning maqolalari, tarjimalari chiqqan. O'quvchilarim yuborgan maqola va she'rlarga tahririyat xodimlari e'tiborsiz qarashmaydi. Men doimo o'quvchilarimga bu gazetani o'qib borishni, unga yozib turishni tavsiya etaman. Tahririyat xodimlariga esa yangi - 2002 yilda sog'liq va omad tilab qolaman.

*Qursiya RAVSHANOVA,
G'ijduvon tumanidagi 8- iqtidorli bolalar
mактаб-internatining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi.*




MA'NAVİYAT KUNINI O'TKAZAMIZ

Ma'lumki, maktablarda «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» darsi kiritilgan. Biroq u haftasiga bir soatdan bo'ladi. Darsga o'quvchilarni yanada qiziqtirish maqsadida maktabimizda haftaning har

seshanbasida «Ma'naviyat kuni» o'tkaziladi. Unda har bir sinf mavzu tanlab, unga oid she'rlar, qo'shiqlar va sahna ko'rinishlari tayorlashadi. O'quvchilarning maslahatchisi esa maktab rahbari Orif hoji Oxunov va muovoni Mutallib Temirov domlalardir. Ular bizlarga manbalar, kitoblar topishga ko'maklashadilar.

*Manzura
ABDUJABBOROVA,
Andijon viloyati, Izboskan
tumanidagi 15- maktabning
9-sinf o'quvchisi.*



ILHOM PARISI KELDI


Men adabiyotning ashaddiy muxlisiman. Qayerda she'riy to'plamlarni yoki gazeta sahifalaridagi nazmiy satrlarni ko'rsam, astoydil o'qishga kirishaman. Ba'zida menda shunday his-tuyg'ular paydo bo'ladiki, go'yo she'r yozish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Butun vujudim she'r ishtiyoqida yonadi. Ayajonim esa: «O'g'limning ilhom parisi keldi», -deydilar. «Dadajon», degan she'rim ham yaqinda yozildi.

DADAJON

Siz bo'lsangiz yonimizda,
Nurga to'lar uyimiz.
Siz borsizki, ko'nglimiz tog',
Yangrar qo'shiq, kuyimiz.

Dadajonim, keng jahonim,
Uyimiz to'ridasiz.
Turing dunyo turgunicha,
Qalbimiz qo'ridasiz.

*Madina AZIMOVA,
Samarkand shahri, Temiryo'l tumanidagi
14- maktabning 9- sinf o'quvchisi.*



Qarisi bor uy fayzli, qut-barakali bo'ladi, deydi xalqimiz. Bu albatta, ezgu niyatlarimizning ro'yobga chiqishida duoga qo'l ochgan otaxonu onaxonlarimizning

ZARI BOR UY

xonadonimizda o'ziga xos o'mi borligidan, ular bolajonlarning faxru, g'ururi ekanligidan dalolatdir.

Farzand huzur-halovatni va osoyishtalikni ota-onasi bag'rida topadi. Quyosh kabi qalblarimizni isitadigan bu ikki tabarruk zotni ulug' ayyom - qadrlash yili bilan qutlasak, ko'ngillari tog'dek ko'tariladi. Shayx Sa'diy aytganlaridek, «Sen o'z otangga nisbatan qanday yaxshilik qildingki, shunday yaxshilikni farzandingdan kutasan, ya'ni otangga qanday muomala qilgan bo'lsang, farzanding ham senga shunday muomala qiladi». Shunday ekan, har birimiz ota-onamizning nuroniy chehrasida kelajagimiz ko'z tashlab turganini umutmasak bo'ldi.

*Shahnoza OYDINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika nafis san'at litseyining
10- «G» tarix sinf o'quvchisi.*




O'qituvchilik faoliyatini Toshkent Politehnika institutining Buxoro filialida boshlagan Gulandom opa G'ijduvonnning bir qator

obodonchilik ishlarni yo'lga qo'yib ezgulik sari intilgan. Insonlarga muruvvat ko'rsatish, sahovatlari bo'lish, vijdonan mehnat qilishni asosiy shior deb bilgan.

bilan birga G'ijduvondagi Ulug'bek nomli 1 - son o'rta maktabda dars berar ekanman, bolalik xotiralarga berilaman. Matematikadan saboq -

DONOLIK SABOG'I

maktablarida ham direktor vazifasida ishladi. Faoliyati davrida



Gulandom opadan: «Qator yillar rahbarlik lavozimlarida ishlab keldingiz, ammo hozirgi kunda yana maktabga qaytdingiz. Buning sababi nimada?», deb so'radik.

-Bilasizmi, maktabda o'qib yurgan davrimdayoq matematika o'qituvchiligi kasbiga o'zgacha mehr qo'yganman. Sobiq sinfdoshim Habiba Mo'minova

sabog'i axir. Hamma vaqt xalq hurmatiga sazovor bo'lgan o'qituvchi onajonim Saida Badriddinova va olloh rahmat qilsin tarbiyachi otajonim Tursun Sharipovlar farzandi degan nomga munosib bo'lishga, ular ishini davom ettirishga bor vujudim bilan intilayapman. Bundan tashqari, yosh o'qituvchilarga ustozlik qilish,



ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini o'stirishga hissa

qoshaytanimdan quvonaman.

Ha, Gulandom opa qayerda ishlamasin hamma vaqt o'z vazifasini vijdonan, namunali bajarish uchun harakat qildi. «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi» nishoni bilan muhofotlanishi Gulandom Sharipovning 2001 yildagi eng quvonchli kunlaridan biri bo'ldi.

Biz ham ularning kelgusidagi ishlarida ulkan omadlar, o'zlariga sog'lik, salomatlik tilab qolamiz.

Ozoda
MUXAMMEDOVA.

Men o'qituvchilar sulolasini farzandiman. Faqat dadam...

Dadam ham o'z navbatida ustozlar. Ko'p shogirdlari bor. Faqat mashina sozlovchi ustozlar. Agar biz tomona yo'lingiz tushib, «G'ijduvonda eng qo'li gul usto kim?», deb so'rasangiz, «Albatta Usto Husan», degan javobni eshitasiz...

Yangi yil bayramida turli sovg'alarga ega


ICHIDA TILLOSI BOR SOVG'A

bo'ldik.

Ularni ko'rib turgan edik, dadamning shogirdlari O'limas aka ham bizga sovg'a keltirib qoldilar. Ular hadyalarning ko'pligini ko'rib «Ichida tillasi bor usto Husanning sovg'asi qani?» deb so'rab qoldilar. Biz ham hayron bo'lib shosha-pisha sovg'alarini titkilay boshladik. Ucam Xurshid, singlim Hamida darhol sovg'ani topishdi. Orasini ohib ko'rsak, qay ko'z bilan ko'raylikki, menikida «Tong yulduzi»ga, ukam sovg'asida «Gulxan»ga, singlimnikida «G'uncha»ga obuna qog'ozni turibdi. Sevinib ketdik. Axir bolalarga bolalar nashridan ortiqroq sovg'a bormi dunyoda. Yana u bir yil davomida kelib tursa, mazza-da o'ziyam.

Shunday qilib eng yaxshi sovg'a Usto Husanning sovg'asi ekan. Ularga hamma qoyil qoldi. Biz esa dadajonimdek kamtar, mehnatkash, mehridaryo inson bo'lishga harakat qilamiz, deb ko'nglimizga tugib qo'yidik.

Husniddin HIDOVATOV,
Buxoro viloyati, G'ijduvон tumani,
Mirzo Ulug'bek nomidagi 1-maktab
o'quvchisi.



MUSTOZ haqidagi



Men 21 yillik ish tajribasiga ega sinf rahbarim Dilbar opa Faxriddinova bilan qurban suhbatimni sizlar e'tiboringizga havola etmoqchiman.

TA'ZIM AYLAYMAN



-Mana, 1981 yildan buyon shu maktabda ona tili va adabiyotdan dars berib kelmoqdaman. O'z kasbini sevgan o'qituvchi faoliyatida duch ke la di ga n mushkulotlarni osongima yengadi. Chunonchi bolalarni tarbiyalash, ular bilan shug'ullanish, o'z mehrini bilimga yo'g'irib bera olish mahorati faqatgina fidoyi ustozlardagina mujassam


bo'ldi. Ish faoliyatimda yaxshi o'qiydigan, xulqi, odobi namunali o'quvchilar ham, tarbiyasi og'ir o'quvchilar ham uchraydi. Men shunday o'quvchilar qalbiga quloq solib, ularni to'g'ri yo'lga boshlashga harakat qilaman. Ehtimol shundanmi, mening kasbimni, mening mahoratimni havas qilgan shogirdlarim bir talay. Lola Toshxojayeva, Baro Muhammedova, Umida Abdurahimovlar hozirda mening yelkadoshlarim. Nevaram Gavharxon Bahromova ham kelajakda muallim bo'lishni orzulaydi. Ustozlar shajarasini davom ettermoqchi.

Qadrli ustoz, siz - sharaffli kasb egasisiz. Siz - avlodlar suyanchisiz. Siz - bizning ishonchimizsiz. Bizning baxtimizga sog'-salomat bo'ling. Qalblarga ularshagan ezguliklar evaziga sizga ta'zim aylaymiz.

Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumani

169-maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi.

Qariyb o'ttiz yildan beri Islom aka Yarashev Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Mustafo Halilov nomli 5-maktabda o'quvchilarga ma'naviy tarbiya bilan birgalikda ingliz tili fanidan saboq beradi. Shu yillar mobaynida besh marotaba 10-11 sinf o'quvchilarini bitirtirib, mustaqil hayotga yo'lladi. Hozirda ingliz tili uslubiy uyushmasi rahbari bo'lib ishlaromoqda. Yosh o'qituvchilarga esa pedagogik mahoratini o'stirishga yaqindan ko'maklashadi. Usto zning o'quvchilari - Shohista Muhammadiyeva va




SHOGIRDLARI BISYOR

Mirzohid Vohidovlar bir necha bor tuman olimpiadalarida qatnashib, sovrinli o'rinalar sohiblari bo'imodqalar. Ingliz tili to'garagining faol qatnashchilari 8-9 sinf o'quvchilar Aziza Nusratova, Gulbahor Sanoyeva, Nafisa Tohirova, Gulzoda Haydarova, Norjon Asanova, Vohidov, Ahmedov kabilar Islom akaning xorijiy til sirlaridan voqif qilishini so'rashadi. Qator shogirdlari yurtimizning turli shaharlarda, nufuzli ishlarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Men bugun viloyatimizdagidagi fidoyi ustozlardan faqatgina bir nafari haqida so'z yuritdim, xolos. Bundaylar juda ko'p bizda. Inonmasangiz, mehmonga keling, ko'ring, ular bilan tanishing.

M. HALIMOV,
maktab direktori.



SOG'INCH

Onam menga juda g'amxo'r edilar. Voldamda hamma yaxshi fazilatlar mujassam edi. Taqdir ekan, g'amxo'rimdan juda erta ayrdim. Bu fojea meni karaxt qilib qo'ygandi. Men otamning yana oila qurishlarini istamas edim, biroq buni hech kimga bildirmay yurardim. Bir yil o'tdi. To'satdan allanarsa yozilgan bir yon daftarga ko'zim tushdi. Uni olib varaqlay boshladim. To'g'ri, men unda yozilgan yozuvlarni o'qiy olmasdim, ammo «O'qishni o'rganib organimdan so'ng o'qiyman», deb asrab qo'ydim. Niroyat men qo'limda gullar bilan maktabga qadam bosdim. Men juda ham kamgap, xayolparast edim. Otamning noroziliklariga qaramay buvim ularni uylantirdilar. Otamning to'y kunitagi xomushliklarini ko'rib, o'zimni aybdordek his qildim. To'y o'tdi. Kelinchak juda chiroyli, mehribon edi. U menga bora-bora yoqa boshladi. Keyin esa biz ona-boladek bo'lib qoldik. Bir kuni yoshtagimda topib olgan daftarcha yodimga tushdi va uni qidirishga tushdim. U onamning sandiqlari ichida edi. O'sha kuni tun bo'yi onamni qo'msab, ularni o'ylab chiddim. Bu sog'inch vujudimni qamrab olgandi. Ko'zimdan esa juda achchiq yosh tomchilari oqardi. Shu payt kimdir xonamning eshigini ochib kirdi. Bu mening opam edilar, yig'layotganimni ko'rib sababini so'radilar, indamadim. Opam o'zlarining mehnatkash qo'llari bilan mening boshimni siladilar. Shunda onam boshimni silagandek tuyuldi. Ularning so'zları meni allagandek edi. Shunda ularning menga bo'lgan mehrlarini qalban his qildim. Daftarcha o'shal sandiqda o'qilmay qoldi. Garchi inson qalbi qattiq jarohatlangan bo'lsa, unga ona mehri orom bag'ishlaydi. Men bu mehrni opamdan qayta topgandek bo'ldim. Opajon, men va ukalarimning baxtiga doimo sog' bo'lishingizni Ollohdan so'rab qolaman.

*Fariza ZOKIROVA,
7- «A» sinf o'quvchisi.*

KAMALAK

Bahorning mayin yomg'iridan so'ng, Maysalar yuzidan yuvildi g'ubor. Adirlar bag'rida o'sgan binafsha, Boshini egadi qilgandek u or.

Beg'ubor osmon uzra do'stlarim, Yoyilibdi fusunkor, go'zal kamalak. Uning betakror, rangin ranglari, Hayot sirlarin aytar ey falak.

Kimningdir ko'ngli mehrga muhtoj, Ko'p himmat bordir bir shirin so'zda. Kimdir to'ygandir dunyo ishidan, Bularning barini men ko'rdim senda.

BARG

Daraxt shoxida qurigan bargning, Taqdiri o'xshar inson umriga. Uning ilk kurtak yozishi esa, Odamzod yoshtagin soladi esga.

Haqiqat bilan yashagin, faqat, Birovning ishini sen qilgin oson. Adolat bo'lsin sening yo'ldoshing, Yomonlik yo'lidan borma, ey-inson.

Berilgan umringni sarflagin doim, Yaxshilik, saxiylik qilmoqqa do'stim. Yomonlikni o'zingga ep ko'rsang agar, Nomingga qora dog' qo'nadi, do'stim.

*Sherzod NARZIYEV,
7- «A» sinf o'quvchisi.*

TENGDDOSHLARING uodi

Navqiron va go'zal Navoiy shahrining bir go'shasida joylashgan 15-o'rta maktab o'quvchilari ham «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini maroq bilan o'qib borishadi. Maktabimizda ijodkor o'quvchilarga katta e'tibor beriladi. Yaqinda «Iqtidorli bolalar - oramizda» mavzusida ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Maktabda ish olib borayotgan «Yosh qalamkashlar» to'garagining har bir qatnashchisi ko'rik-tanlova o'z ijodlari bilan qatnashib, ko'pchilikning tahsiniga sazovor bo'lishdi. O'quvchilarimiz erkin, mustaqil fikrlamoqda. Bu jajjigina, lekin fikrlar, hislar, tuyg'ular bilan limmo-lim to'lgan qalb egalarining ijodi bilan Siz ham tanishib chiqing.

*G. R. HOTAMOVA,
Navoiy shahridagi S.P.Korolyov nomli maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi.*

G. R. HOTAMOVA,

*Navoiy shahridagi S.P.Korolyov nomli maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi.*

G. R. HOTAMOVA,

*Navoiy shahridagi S.P.Korolyov nomli maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi.*

TABIAT QO'YNIDA

Tabiat! Naqadar sehrli so'z! Bu so'zni eshitishim bilanoq, jazzi yuragimda allaqanday his inson uni ko'z bilan emas, balki qalbidagi g'urur bilan his etishi lozim. Bir-biridan chiroyli uyg'onadi. Uni qo'nga qalam olib yoki sehrli so'zlar bilan ifoda etishga til ham ojizdir. Tabiat qo'ynida sayr qilib yurganingda, ayniqsa, tog'lar bag'ri ni kuzatganingda o'zgacha orom olasan kishi. Tog' atroflarini, uning sharqirab oqayotgan zilol suvlarini, o'rmonlarini va o'tlab yurgan hayvonlar to'dasini kuzatishni katta baxt deb o'ylayman. Tabiatni maroq bilan kuzatganingda uning sirli olam husniga hech narsa teng kelolmasligini ko'ra olasan. Tabiatni kuzatayotgan har bir gullarning xushbo'y hidi kishini mast qilib qo'yadi. Jajjigina qushchalarning shoxdan-shoxga qo'nib, quvnoq qo'shiq aytishlari, suvlarning shiddat bilan sharqirab oqishi insonni o'ychan xayollarga qamrab tashlaydi. Maysalarning senga qarab, nozik termilib turishi allanimalarni pichirlayotgandek tuyuladi. Tog'lardagi mujassam bo'lgan qushlar, o'simliklar, hayvonlar kishini tabiatga yanada ezguliklar bilan qarashga chorlaydi.

*Kamola XALILOVA,
6- «A» sinf o'quvchisi.*

dalolatdir. Kumush qish o'zining oppoq va beg'ubor qorlari bilan, bahor esa tabiatning qayta uyg'onganligi bilan, yoz.

Ular tabiatning g'amxo'rligidan xursand bo'lishadi.

Ona-tabiatni himoya qilish - bu biz yoshlarning vazifamizdir. Atrof-muhitning tozaligiga, uning ozodaligiga kattalar qatori bizlar

h a m
o'zimizning
hissamizni
qo'shishimiz

lozimdir.

Yurtimning tabiatni, uning go'zal manzaralarini har bir insonni o'zgacha hayratlantridi. Uning viyorli tog'lari, guldan-gulga sakrab o'ynagan kapalaklari, yam-yashil o'tloqzorlari, husnga va chiroyga boy gullari naqadar tarovatli va fusunkordir.

*Nilufar NIZOMOVA,
6- «A» sinf o'quvchisi.*

QALB GO'ZALLIGI

Tong otdi. Quyosh yorug', zarrin nurlari bilan olamni uyg'otdi. Tabiat, o'simlik, hayvonlari hattoki insonlar ham xushkayfiyat, ezguliklar ila kunni qarshilashdi. Lekin men negadir hamisha kuz faslida, bamsoli tabiat singari yolg'izlanib qolaman.

Ko'pincha kuz fasli inson qalbidagi go'zallikni, jo'shqinlikni uyg'otadi. Lekin menin qalbimni kuz faslining har bir zarralari g'amginlikka, o'nya to'ldirib yuboradi. Daryo bo'yida o'tirib, uzoq xayollarga cho'mib qolaman. Daryo o'zining har bir toshqinlari menin qalbimdagagi go'zalliklarni, ezguliklarni cho'ktirib yuborgandek bo'ladi. Xuddi menin vujudimdagagi go'zalliklar meni butunlay tark etayotganday qalbim nola chekadi.

Osmonga qarab tikilib qolaman. Qani yana bahor kelsa. Osmondan yomg'irning oltin tomchilari atrofni go'zalliklarga burkasa-yu, falakdan yetti xil kamalak jilosi tovlansa. Kamalakning rang-barang jilosi poklik, muhabbat, go'zallikni, osoyishtalikni, ezguliklarni tarannum etuvchi har bir zarrasi, vujudimni yana qayta g'unchalarga aylantirsa, ba'zida falakdan kamalakning yetti jilosi tovlanib chiqsa, qalbim yayrab ketadi.

Kamalak! Sening yetti zarrang qalbimning bir ustuni, har bir nurlaringda insoniyat qalbiga ezguliklar taralsin!

*Nafisa Vohidova,
6- «A» sinf o'quvchisi.*



HASROTIMIZ BEZAG

o'zining shirin-shakar lazzatga boy mevalari bilan, kuz o'zining xazonlari, to'zitgan shamollari bilan hammani o'ziga jalgilishi, bir-biridan maqtangisi, bir-biridan ustun ekanligini isbotlagisi keladi. Lekin ularning hammasi o'zgacha sehrga, o'zgacha go'zallikka boydir. Shunisi ham borki ularning hammasi tarovatli, jilokorligi bilan shoir qalamida jonlanadi, unga ilhom bag'ishlaydi. Osmalarning beg'uborligini, zilol suvning shifobaxshligini, daraxtlar barglarining shitirlashini, qushlarning samoda erkin parvoz qilishini tabiatda kuzatganmisiz?

SHAHRIZODANING 2002- "SEZAM" ERTAGI

деган ажойиб гурух бор экан. У хазинага тўла кунжут донасига ўхшаркан. Кунжут очилган сайин ичидан жавоҳирлар қайнаб чиқаркан.

Бир кўзли Хасан қароқчи: "Нима, жавоҳирлар? Улар меники, фақат меники бўлиши керак. Ҳозир "Сезам"ни ўмараман.

Шахризода: "Бекорларни

завқ улашмоқчи. Қорбобо ва

қорқиз бошчилигига ўйин-

кулгини давом эттири-

шади"...

Ҳақиқатан ҳам "Империал" клубида ҳақиқий базму жамшид бўлди. Газетамизнинг аввалги сонида эълон қилинган байрам дастурини ўқиб, кечага борган ўқувчи-лар гапимни исботлашлари мумкин. Эпчил ва чақон болажонлар арқон тортисишиди, мерғанлари мўлжалга халқа туширишиди, топқи-ялари жумбоқларни ечишиди. Қўшиқлар авжига чиққанда наинки болалар, балки ота-оналар ҳам рақсга тушишиди.

.Келинг сизни "Сезам" билан таништирай. "Сезам" гурӯҳи 1997 йили Тошкент шаҳар, Юнусобод тумани

Кўшимча таълим мажмусасида бади-иий ва мусиқа раҳбари Елена Зоки-

рова бошчилигига вужудга келди. Гуруҳга беш ёшдан ўн бир ёшгача бўлган иқтидорли 16 нафар болалар жамланган. Ранг-баранг репертуарни хосил қилувчи ўттиз иккита қўшиқлар таниқли баста-корлар Алишер Икромов, Дони Илёсов, Вагиф Зо-киров, Руслан Шарипов ва шоир Иброҳим Жияновлар томонидан яратилган. Бугунга қадар гуруҳ 40дан зиёд кон-

церт беришиди. Ҳаттоқи ўзбек эстрада юлдузлари ўз концерт дастурларини очиб бершида "Сезам"ни таклиф қилишади. Болалар кийим-кечагининг кўргазмасида, ойна жаҳон орқали намойши этилган "Юлдузча" замонавий болалар қўшиқлари тапловида фахрий ўрнларга сазовор бўлган. Шоу-номерга айланаб кетаётган дастурлар устида бадиий раҳбар ташмай меҳнат қиласи ва болаларни меҳнат қилишига унайди.



Шахризода: Азиз, қоракўз болажонлар мен сизларга 2002 эртагимни сўзламоқчи-ман. Диққат билан қулоқ тутинг-а. Менинг ушибу эртагимда саргузаштлар, қизи-

қарли ўйинлар, қўшиқлар ва рақслар ўрни олган.

"Бир бор экан, бир йўқ экан. Қадимда эмас, ҳозирги замонда "Сезам"

Елена ЗОКИРОВА: "Мен болажонларни саҳнада қимтинымай, уялмай, эркин туриншларини, харакатлари ишончили ва маъноли чиқишини истайман. Бунинг учун кўп машқ қиласиз. Яхши натижа кўрганимдан кейин кўнглим жойига тушади. Қатнашичиларнинг кийимларини, эртак қаҳрамоноларини ўзимиз тикамиз. Бунда чеваримиз Нодира опа бизга катта маслаҳатчилар

Мана, яқинда жуда катта иш килдик. "Сезам" ижросидаги қўшиқлар матни ва нотаси туширилган рангли тасвирдаги китобча нашр этиб, қўшиқлар ёзилган аудио кассета чиқардик. Яқин кунларда сотув пештахтларининг кўрки бўлса ажаб эмас. Нотали китобча чиқаришимиздан мақсад бўғчалар, мактаблар, мусиқий ташкилотлар доимо замонавий болалар қўшиқларига эҳтиёж сезадилар. Матнни билишса, нотани билишмайди. Нота топилса унга мос матн бўлмайди. Хуллас муаммоларни озмунча бўлса-да ҳал қила одишимиздан мамнунман. Бу китобча билан эрталиклар, тадбирлар, кечалар уюнтиришса бўлади. Барча бизнинг "Сезам"га жўр бўлиши".

ХАЙНАСА ТОҶА



Ирина СЕМИДОНСКАЯ.

Нигора ХЎЖАМҚУЛОВА.

Аваз

ИСАМУҲАМЕДОВ.

ШАЙТОНЧА

Нақорат

Ким айтади,
Бу қизчани деб -
Шайтонча?
Ҳар ишда ҳаммадан зўр
Бу -шайтонча!

Кўғирчоқ ўйнайди,
Дарсни ҳам қўймайди.
Арзимас нарсага,
У хафа бўлмайди.



I. Jiyarov so'zi
V. Zokirov kuyi.

Ҳеч кимни тинч қўймас,
Шўхлик қилиб тўймас.
Ҳеч кимни тинч қўймас,
Шўхлик қилиб тўймас.

Бу қизча жим юрмас,
Ҳеч кимга ўхшамас.
Бу қизча жим юрмас,
Ҳеч кимга ўхшамас.

Мухаррама ПИРМАТОВА



У шўхлик қиласи,
Рақсга тушади.
Қўшиқлар айтади,
У кимга ўхшайди?

Буни ҳеч ким билмас,
Бу қизча жим юрмас.
Буни ҳеч ким билмас,
Бу қизча жим юрмас.

QUTLUG' YOSHJINGIZ MUBORAK BUVJON

Outlov

Inson umri davomida shukronalik bilan bo'lib o'tiribdilar. Biz buvijonimizni chin dildan yaxshi ko'ramiz. Ayniqsa, men ularning ajin tushgan yuzlaridan o'pishni, ularni quchoqlab to'yib-to'yib hidlashni, yumshoq qo'llarini slashni juda yaxshi ko'raman. Men buvijonimni dunyodagi eng iliq quyoshdan ham, daryodagi tinqi suvdan ham, tildagi eng shirin boldan ham yaxshi ko'raman. Men ularni quyosh kabi so'nmasliklarini, yulduz kabi yaraqlab turishlarini, tog' kabi mahkam chidamli bo'lislari tilab qolaman. Bilingki, sizni neverangiz Samixa o'la o'lguncha jonidan aziz ko'radi. Tug'ilgan kuningiz qutlug' bo'lsin, aziz buvijonim.

Toshkent shahri, Pedagogika kollejida tahsil oluvchi Neverangiz SAMIXA.

ORZULARIM PARVOZGA SHAY

So'lim poytaxtimizda 20-dekabr kuni ajoyib bir tantana o'tkazildi. Shu kuni Toshkent aviatsiya klubida respublikamizning turli viloyatlaridan o'quvchi yoshlar tashrif buyurishdi. Ular O'zbekiston aviakompaniyasi tashkil topganining 10 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan radiotanlov g'oliblari va sovrindorlaridir.

Ular aviatsiya haqidagi fikr-mulohazalarini «Orzularim parvozda mening» mavzusidagi insholarda bayon etganlar. Bu narsa o'quvchilarimizni yurtimiz taraqqiyoti, uning ravnaqi yo'lidagi ijobjiy o'zgarishlariga befarq emasliklarini, nechog'li qiziquvchan ekanliklarini ko'rsatdi. G'oliblar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Ular haqida ajoyib so'zlar aytildi. O'zbekiston aviakompaniyasi vakili Sattor Ali Qurbonovni tanlov ishtirokchilari haqidagi alohida mulohazalari ishtirokchilarni to'lqinlantirib yubordi. Buxorolik ishtirokchi Po'latov Azimning aviatsiya haqida mukammal yoritishga harakat qilganligi diqqatga sazovor bo'lgan bo'lsa, Ruhsora Shodmonovaning inshosida samimiylilik, xolis fikr, qishloq bolalariga xos beg'ubor tuyg'u, munosabatlarning ifodalanganligi alohida ta'kidlandi. Qiziquvchan yoshlarimizni aviatsiya sohasi bilan yanada yaqinroq tanishishlari maqsadida aviatsiya olamiga sayohat uyushtirildi. Bu tanishuvdan ular olam-olam taassurotlar bilan qaytishdi. Bundan keyin aviatsiyamiz kelajagi Ruhsora Shodmonova hamda A'zimjondek o'g'il-qizlarimiz qo'lida ekanligi ta'kidlanganda aviatsiyamiz haqidagi inshoda qatnashgan g'olib o'quvchilarimiz ruhlari bundanda ko'tarildi.

Biz kelajakda ana shunday ajoyib o'quvchilarimizga yuksak omadlar tilab qolamiz.

*Mastuna ESONOVA,
Sirg'ali tumani dagi 3-o'rta maktabning
7- «A» sinf o'quvchisi.*



bo'lib o'tiribdilar. Biz buvijonimizni chin dildan yaxshi ko'ramiz. Ayniqsa, men ularning ajin tushgan yuzlaridan o'pishni, ularni quchoqlab to'yib-to'yib hidlashni, yumshoq qo'llarini slashni juda yaxshi ko'raman. Men buvijonimni dunyodagi eng iliq quyoshdan ham, daryodagi tinqi suvdan ham, tildagi eng shirin boldan ham yaxshi ko'raman. Men ularni quyosh kabi so'nmasliklarini, yulduz kabi yaraqlab turishlarini, tog' kabi mahkam chidamli bo'lislari tilab qolaman. Bilingki, sizni neverangiz Samixa o'la o'lguncha jonidan aziz ko'radi. Tug'ilgan kuningiz qutlug' bo'lsin, aziz buvijonim.

Toshkent shahri, Pedagogika kollejida tahsil oluvchi Neverangiz SAMIXA.



DALDA
Esimni taniganimdan beri she'r mashq qilaman. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchim Niyozmuhammad Panjiyevning ko'maklari o'laroq she'rlarimdag'i ayrim juz'iy xatolarni tuzatardim. Ayniqsa ilk namunalarim tuman gazetasida chop etilgani menga juda katta dalda bo'ldi. O'zimga ishonishimga yordamlashdi. «Yosh qalamkashlar» to'garagi menin sevimli mashg'ulotim. She'rimni o'qib siz ham baho bering, azizlar.

BOBOMNING CHORBOG'IDA

Har yil bir bor boraman,
Yozgi ta'til chog'ida.
Miriqib dam olaman,
Bobomning chorborg'ida.

Bodom, o'rik, olmalar,
Ostobda tovlanadi.
Jilvalanib har biri,
Ko'zlarim nurlanadi.

Xushmanzara bu bog'ni,
Bobom o'zi yaratgan.
Parvarishlab niholni,
Chin mehrini qaratgan.

Tog'nikidan qolishmas,
Bog'imizning havosi.
Bog' ichini qamragan,
Bulbul, chittak navosi.


DO'STLIKNI SHIOR QIL

Yaxshiga tosh otmagin,
Sen do'stlikni shior qil.
Gunohlarga botmagin,
Sen do'stlikni shior qil.

Yurma shayton yo'lidan,
Tutma nokas qo'lidan.
Uzma qalblar gulidan,
Sen do'stlikni shior qil.

Ezgulikni kuylagan,
Haqiqatni so'yagan.
Oxirating o'yagan,
Sen do'stlikni shior qil.

*Nodir TO'RAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Usmon Yusupov tumani, Jeynov qishlog'idagi litsey-internat o'quvchisi.*



Yosh cholg'uchiga musiqa matabiga eltuvchi to'g'ri yo'lni topishiga ko'maklashing.



*Yangi yilda bezanadi,
Archalarining barchasi.
Qarang, qanday chiroyli-ya,
Avazbekning archasi.*

SAFDOSHINGIZMAN

Ha, men chin ma'nodagi safdoshingizman. Nega deb ajablanyapsizmi? Chunki men ham sizlar kabi ijod sohibasi bo'lish istagidaman. Biroq ketma-ket jo'natgan sakkizta xatim javobsiz qoldi. Bunisi esa to'qqizinchisi. Iltimos, hech bo'lmasa o'z munosabatingizni bildirsangiz. Bu she'rlarim ilgarilaridan ancha puxta deb o'layman.



«TONG YULDUZI»

Ma'nolisan «Tong yulduzi»,
Sahifang ochdim bir kun.
Bizlar uchun ong yulduzi,
Qoyilman endi bugun.

Biz kelajak poydevori,
Kecha-yu kunduzimiz.
Fikrimizni charxlayotgan,
Bizning «Tong yulduzi»miz.

MUALLIM

Mehr bergin desa, mehr beradi,
Sehr bergin desa, sehr beradi.
Mashaqqat bilan u beradi ta'l'm,
Biz uchun muqaddas, aziz muallim.

Mayli, siz-la o'tsin umrim, har onim,
Mayli sizga bo'lsin shu aziz jonim.
Sizning so'zingiz-la o'sib, ulg'aydim,
Ta'zim sizga, ey mehribon muallim.

Ko'zimning gavhari ota-onamdir,
Qorachig'im esa o'zingiz - ustoz.
Ko'zimni ochgan ham sizsiz muallim,
Qancha hurmat qilsam baribir ham oz.

*Ma'rifat TEMIROVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, Miraki shaharchasidagi
2-Huquq va Iqtisod asoslari litsey-internatining 8-sinfo o'quvchisi.*

**SO'ZLI
TOPISHMOQLAR**

Shunday so'zli topishmoqlar o'ylab topilganki, bularga anagramma, logograf, metagramma, sharada kabi xilma-xil jumboqlar kiradi. Ulardagi umumiy o'xshashlik aynan keltirilgan yoki ta'rifi bayon etilgan so'zni topib, shu so'z asosida boshqa ma'nodagi yangi bir so'z hosil qilishdir. Har bir turdag'i topishmoq turi o'ziga xos tuzilishi va hal etilishi bilan qiziqarli.

ANAGRAMMA

Anagramma - grekcha - «ana» - o'zgartirib, almashtirib, «gramma» - yozuv ma'nosini anglatadi. Anagramma berilgan so'zni teskarisiga o'qish yoki harflar o'rnini almashtirib, yangi mustaqil so'z hosil qilish bilan hal etiladi. Anagrammani

eramizdan avvalgi III asrda qadimgi yunon grammatigi Likofron o'ylab

Boshqotirma

topgan deb, hisoblanadi. Masalan, «Naf» teskarisiga o'qilsa, «Fan» bo'ladi. «Faraz» so'zidagi harflar o'rni almashtirilsa, «Zafar» so'zi kelib chiqadi. Quyida berilgan so'zlardan boshqa ma'nodagi so'zlar hosil qiling-chi:

Zar, Shona, Chang, Urug', Ko'za, Holva, Taroq, Chayla, Oltin, Sadaf.

Anagramma savol tarzida ham berilishi mumkin. Bunda u ikki qismda aks etadi, avval birinchi so'z yoki nom ta'rifi bayon etilib, keyin shu so'zidagi harflar o'rni almashtirilgandan so'ng kelib chiqadigan so'z ifodalab berilgan bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston janubidagi shahar. She'riy

to'plam.
Anagramma she'riy yo'lda ham bayon etilishi mumkin.

Endi quyidagi anagrammalar javobini toping.

Nomdoshdir u daryoga, Afrika mamlakati. Harflar o'rni almashsa, Respublikamiz shahri.

Zangori olov koni,
O'zbekiston shuhrat. Almashsa bosh harf o'rni, O'qirсан raqs nomini.

Qon tomiriga nomdosh, Qadimiy poytaxt shahar. Bir harfni almashtirsang, Daryo bo'lib u jo'shar.

O'g'il bolalar ismi, Udir Afrika yurti. Bo'g'in o'rni almashsa Bo'lur davlat poytaxti.

Foziljon ORIPOV.

Dunyodagi eng kichkina otni Argentinada uchratish mumkin. U tovuqdan ozgina balandroq bo'lib, og'irligi 36 kilogramm.

Eng katta botinka «yubiley boshmog'i» bo'lib (bu uning nomi), u 1887 yilda ko'rgazmaga qo'yilgan. Uning og'irligi 37 kilogramm, uzunligi esa 1 metr. U London da

tayyorlangan.

Saturn o'z hajmiga ko'ra (xalqasi bilan birga) Yerdan 758

marta katta bo'lsa-da, u planetamizdan 95 marta og'ir.

Eng uzun jonivor lenta simon chuvalchang bo'lib, Shimoliy dengiz qirg'oqlaridan topilgan. Uning uzunligi 54 metr. 90 santimetrga borgan.

Feruza OBIDOVA,
Yangiyo'l tumanidagi 2- o'rta maktabning
9- «G» sinfi o'quvchisi.

Aziz dugonalar! Mana sizning e'tiboringizda yana «Ochil dasturxon» sahifasi. O'ylaymanki, ushbu sahifa orqali siz oz bo'lsa-da, pazandalik sirlarini o'rganib bormoqdasisz. Mana bugun ham men sizga juda mazali, dasturxonining ko'runga aylanuvchi tortni tayyorlanish sirlarini o'rgataman. Bu tortning nomi «Plombir» bo'lib, u juda ham mazali.

Masalliqlar: 11 ta tuxum, 1 piyola shakar va 1 piyola qand upasi, 200 gr. qaymoq, 1 piyola un, 200 gr. sariyog', 1 piyola yong'oq.

Tayyorlanishi: 6 ta tuxum, 1 piyola shakar va 1 piyola un solib, biskvit xamir

qoriladi. Gaz patnisi yog'lanib, biskvit bir qoshiqdan quyilib

OCHIL DASTURXON



qizib turgan gaz duxovkasida pishirib olinadi.

Kremi: 200 gr. qaymoq, qand upasi va 5 ta tuxum sarig'i aralashtiriladi. Boshqa tog'orachada 200 gr. sariyog'

ko'pirtirilib, yuqorida tayyorlangan qaymoqli masalliq sekin-astalik bilan solinadi. Krem quyilgach oxirida 1 piyola yong'oq solinadi.

Pishirib olgan biskvit xamirimizni patnisga yoki kattaroq likopchaga 4 donasini teramiz va krem surtamiz, shu tariqa biskvit va krem tugaguncha terib boramiz. Tortimiz tayyor bo'lgandan so'ng ustidagi krem tekislanib, maydalangan yong'oq sepiladi, xohlasangiz shokoladni maydalab sepishingiz mumkin.

Bu tortimiz bayram dasturxonimizning ko'runga ko'r qo'shadi. Yoqimli ishtaha.

Shahlo MUTALOVA.

1. Usta Qulmat qaysi o'zbek xalq shoirining ijod mahsuli?

A. Anvar Obidjon

ARALASH

B. Anbar Otin
C. Abdulla Qodiriy
D. Avaz O'tar

2. Dunyoda eng uzun tunel qaysi davlatda qurilgan?

A. Yaponiya
B. Xitoy
C. Uevropa
D. Italiya
E. Irlandiya

3. Amir Temuring voldasini ismi?

A. Tegin begim
B. Omina begim
C. Odina begim
D. Nodira begim

4. Sharq Arastusi nomini olgan mashhur alloma.

A. Farobi
B. Termiziy
C. Buxoriy
D. Ibn Sino
E. Amir Temur

5. Sport malikasi nomini olgan sport turi?

A. Yengil atletika
B. Tennis
C. Voleybol

Q a d i m - q a d i m zamonda Shosh degan joyda podshoning yolg'iz barno qizi bo'lgan ekan. U voyaga yetib, turmushga bermoqchi bo'libdi. Podsho xalqqa jar solib, qizini kebatli, hunarli va aqli yigitga bermoqchi ekanligini ma'lum qilibdi. O'zini aqli va hunarmand deb bilgan yigitlar podsho saroyiga kela boshlabdi.

Podshoning qizi kelgan yigitlarga qirq ko'rpa berib, odam k a m d a n - k a m boradigan toqqa yuboribdi. Qiz

ularga: «Agarkimda kim shu tog'dan sog'-salomat kelsa shunga turmushga chiqaman» deb shart qo'yibdi. Biroq, u tog'dan hech kim sog' qaytmabdi.

Kunlardan bir kun yupun kiyungan, o'zi sarvqomat, bjr kambag'al yigit kelibdi. «Qayoqqa, nimaga kelding?» deb

so'ragnlarga, u:

Podshoning qizidan men ham umidvorman», deb javob beribdi. Uni eshitganlar kulishib: «Boyaqish bola, sen ham bekorga tog'da muzlab o'lasan-ku», deyishibdi.

Shunday qilib, yigit podsho saroyiga kelibdi. Qiz unga ham qirq ko'rpa beribdi. Yigit toqqa borib, o'ttiz to'qqiz ko'rpani ostiga to'shab, bir ko'rpani ustiga yopib, ertasiga sog'-salomat

podsho saroyiga kelibdi. Podsho hayron bo'lib:

«Sen qanday qolding?», - deb so'rabdi. Shunday yigit: «Men o'ttiz to'qqiz ko'rpani tagimga solib, bir ko'rpani yopinib yotdim. Shuning uchun sog'-salomat keldim.

Butun borganlar esa, bir ko'rpani tagiga solib o'ttiz to'qqiz ko'rpgaga yopinib yotishgan. Tagidan o'tgan sovuqdan ular kasal bo'lishgan», debdi.

Shunday qilib, ahdiqa vafodor kambag'al yigitga o'ttiz kun o'zin, qirq kun to'y qilib, qizini bergen ekan.

Odirboz TOLOBOYEV



ISTIQOL

Men baxtiyor avlodman,
Bayot berdi istiqol.
Unutilgan tilinga,
Hayot berdi istiqol.

Yurtga qaytdi bobolar,
Baland bo'ldi ruhimiz.
Tiklandi obidalar,
Tiklandi tariximiz.

Meni ozod, tilmni,
Burro qildi istiqol.
Dunyolarning ichinda
Dunyo qildi istiqol.

Sohiba XO'JAYOROVA,
Toshkent shahar ijtimoiy
yo'nalihsdagi Respublika
maxsus gimnaziyaning
9-«YE» sinf o'quvchisi.

Qudratli va dahshatli Sher bugun ham har galgidek Zebrani huzur qilib g'ajiyotgan edi. Lekin shu orada, uning halovatini buzib, Yo'lbars va Qoplonning irillagan tovushlari eshitildi.

Sherxon **UXLAGAN SHERNI KO'RDIM**

irg'ib o'rnidan turdi. Yon-atrofga vajohatli qarab, o'zini himoya qilishga shaylandi. Qoplon Sherni bu holatda ko'rib, orqasiga qaramay qochdi. Ammo Yo'lbars



chunonan ulkan baliq tutib oldimki, uni dengizdan tortib olganimda, dengizning suvi naq 1 metrga kamaydi-ya.

XXX

Bordolik lofchi:

-Bilasizmi, do'stim! Bizda-chi, qo'ziqorinlar, dub daraxtiga o'xshab, juda baland o'sadi.

Marsellik lofchi:

-Bir kuni shunday katta baliq tutdimki, uni suvdan tortib olish uchun 10 kishi kerak bo'ldi.

'Bordolik lofchi:

-Men, men-chi, bir kuni

Marsellik lofchi:

-Iya, voy... Shu ham qo'ziqorin bo'libdi-mi, og'ayni! Bizda o'sha siz aytgan dublar qo'ziqorinlarning tagida o'sadi. Mana buni qo'ziqorin deydi.

Marsellik lofchi:

Garov o'ynab aytamanki, hech kim menchalik uzoqni yaxshi ko'ra olmaydi. Masalan, men hozir shu yerdan ko'rib cherkov qo'ng'iroq xonasining tepasida uchib yurgan pashshani ko'rib turibman.

Bordolik lofchi:

-Men pashshani ko'ribgina qolmay, hatto uning qanotlari chiqarayotgan tovushni juda yaxshi eshitib turibman.

Munisa MUSAYEVA
to'pladi.

Toshkentdagi
15- maktabning
5- sinf o'quvchisi.

QISH

Qish keldi o'lkamizga,
Sovuq havo hukmron.
Qor yog'ar guppa-guppa,
Misoli oppoq upa.

YULDUZLAR

Jilmayadi yulduzlar,
Osmondan yerga asta.
Milt-milt yonar, qamashar,
Ko'zing, diling payvasta.
Diyorra UMAROVA,
Toshkent shahri,
Yunusobod tumanidagi
70- maktabning
4- sinf o'quvchisi.

UCH SO'ZLAR

Koptok, bulut, odob.

Olamda osmon quyoshti kun va tun ko'knинг maydonida koptokdek o'ynaydilar va gohida uni qora bulutning zulmatiga chirmab tashlaydilar, aytmoqchi bo'lganim shuki, inson jismidagi odob quyoshi hech qachon aql va tubanlik orasida sarson bo'lmay doimo vijdon osmonini yoritib tursin.

Ko'priklar, sahro, sholg'om.

Sizga qandoq bilmadimu ammo mening nazarimda odamzod dunyoga kelib, ikki eshik orasidagi ko'priklar o'tib borar ekan, unga yo taqdirning jazirama sahosida sholg'omdek sarg'ayish yo hayot gulshanida bir gul bo'lib ochilish nasib etsa-da, buni u o'z peshonasiga oldindan yozib qo'yilgan bitik deb biladi.

Tosh, daryo, fil.

Samo o'zini olamning tomidek ko'rsatsa-yu unda oyning yorug'i va oftob tafti bo'limasa, dengiz qanchalik chuqur va keng bo'lsayu lek daryochalik suvi bo'limasa va nihoyat inson fildek gavdaga ega bo'lsa-yu ongli bo'limasa, hayotni mazmun mohiyatsiz hisoblayvering.

Rohatoy HUSANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis
san'at litseyining
9- «YE» sinf o'quvchisi.

Shu ahvolda tez orada mamlakatimda islohotlar o'tkazdim, soliqlarni kamaytirdim, obodonlashtirish ishlari olib bordim. Sharqning «eng go'zal va dono malikasi» unvonini oldim. Uni menga Chin mamlakatining sulton topshirdi. Afsus, o'sha kungi bazmda bo'Imadingizda, mazza qilardingiz. Ha, aytgandek, unga beva-bechoralarni ham taklif etdim.

Uy ni yig'ishtirishga kelsak, o'ziyam 4 soat yig'ishtiribman. Oyijonim bu holdan xabar topib, tabibga ko'rsatmoqchi ham bo'ldilar. Oxiri uyda o'zimni yolg'iz qoldirmaslikka ahd qilishdi. Men esa o'z xalqimning sevimli malikasi bo'lganimidan bag'oyat baxtiyor edim.

Nigora Muhammad Amin,
Toshkentdagi Interneshn
xauz - litseyining
10- «S» sinf o'quvchisi.



O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamiliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA,
Qahramon QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.



Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

“Sharq” nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nusxada ofset usulida
bosildi.
Korxona manzili:
“Buyuk Turon”
ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-71
Gazetani
Muhabbat
MAXSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Tuhfaniso ORTIQOVA.

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08



ko'ksimga qo'ydim va xuddi vazirlardek itoatkorlik bilan «Xo'p bo'ladi, malikam», dedim boshimni egib.
«Birorta fuqaroning noliganini eshitmay», dedim yana joyimga turib olib g'urur-la. Bir payt supurgiga ko'zim tushdi. «Oqsoch, tezroq surup», dedim yana. Endi oqsoch bo'lib uyni yig'ishtira ketdim.

- Malikam, g'aznachi arz qilib kelibdi, - dedim xizmatchilardan biri bo'lib.
- Kirsin, - javob berdim malika sifatida. Shunda g'aznachi: «Bu ahvolda xazina bo'shab qoladi», deya shikoyat qildi. Albatta